

O‘ZBEK SHE’RIYATIDA INDIVIDUAL USLUB VA BADIY MAHORAT

Quvonch Mamiraliyev,

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktoti (PhD)

O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsent v.b

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

mamiraliyevquvonchbek@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek she‘riyatida individual uslub va badiiy mahorat masalalari tahlil qilinadi. Shoirlarning ijodiy individualligi, poetik tafakkuri hamda tasvir vositalaridan foydalanish mahorati she‘riy asarlar misolida yoritiladi. Maqolada badiiy obraz, poetik til, uslubiy o‘ziga xoslik va estetik ta‘sir masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, o‘zbek she‘riyatida an‘ana va novatorlik uyg‘unligi individual uslub shakllanishining muhim omili sifatida baholanadi va janrlar modifikatsiyasi masalasiga ham tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek she‘riyati, individual uslub, badiiy mahorat, poetik tafakkur, badiiy obraz, poetik til, estetik ta‘sir, an‘ana va novatorlik, janr, qayirma, modifikatsiya.

Abstract. This article analyzes the issues of individual style and artistic mastery in Uzbek poetry. The creative individuality of poets, their poetic thought, and their skill in using descriptive devices are illuminated through examples of poetic works. The article pays special attention to the matters of artistic imagery, poetic language, stylistic uniqueness, and aesthetic impact. Furthermore, the harmony of tradition and innovation in Uzbek poetry is assessed as a significant factor in the formation of individual style, and the issue of genre modification is also explored.

Keywords: Uzbek poetry, individual style, artistic mastery, poetic thought, artistic imagery, poetic language, aesthetic impact, tradition and innovation, genre, refrain, modification.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы индивидуального стиля и художественного мастерства в узбекской поэзии. На примере поэтических произведений раскрываются творческая индивидуальность поэтов, их поэтическое мышление и мастерство использования изобразительных средств. Особое внимание в статье уделяется вопросам художественного образа, поэтического языка, стилистического своеобразия и эстетического воздействия. Также гармония традиций и новаторства оценивается как важный фактор формирования индивидуального стиля в узбекской поэзии и исследуется вопрос модификации жанров.

Ключевые слова: узбекская поэзия, индивидуальный стиль, художественное мастерство, поэтическое мышление, художественный образ, поэтический язык, эстетическое воздействие, традиции и новаторство, жанр, рефрен, модификация.

Kirish. Istiqlol davrida o‘zbek she‘riyati ham mazmun, ham shakliy tomondan taraqqiy etdi. Rus tanqidchisi V.G.Belinskiyning “har davrning o‘z g‘oyasi bo‘lgani kabi o‘z shakllari ham bo‘ladi”, – degan so‘zlari istiqlool davri o‘zbek she‘riyati misolida ham yaqqol bo‘y ko‘rsatadi. Bu fon “uslub – bu inson” degan edi. Ya‘ni har bir ijodkor bir olam, bas, uning individualligi yozgan asarlarida yaqqol bo‘y ko‘rsatib turadi. Xususan, individual ijodiy eksperiment tarzida maydonga kelgan janrlar: qayirma (A.Suyun), ignabarg, uchchanoq (A.Obidjon), fiqra (F.Afro‘z) kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Bunday she‘rlarda, asosan, didaktik ruh, donishmandlik, falsafiylik xususiyatlari kuchli bo‘ladi. Bundan tashqari, hozirgi o‘zbek she‘riyatida ham an‘anaviy bayt – ikki misrali she‘r shakllari ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bundan mumtoz she‘riyatimizning masnaviy va fard janrlariga shakl jihatdan asos bo‘lgan baytning mazmuniy, shakliy,

uslubiy xususiyatlari tobora kengayib bormoqda. Bunday she'rlarda shoirlar, asosan, hikmatomuz fikr, olam va odam yaralishi haqidagi tasavvurlarini, falsafiy mushohadalarini yoritishmoqda.

Adabiyotlar sharhi. O'zbek she'riyatida individual uslub va badiiy mahorat masalalari yuzasidan ko'plab adabiyotshunos olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Tadqiqotlarda shoirlarning poetik tafakkuri, obraz yaratish mahorati hamda til va uslub xususiyatlari tahlil etilgan. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek she'riyatida individual uslubning shakllanishi va estetik tamoyillari muhim ilmiy masala sifatida o'rganilgan. Shuningdek, badiiy mahoratning she'riy ta'sirchanlikni oshirishdagi o'rni ilmiy manbalar asosida yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy hamda lingvopoetik metodlardan foydalaniladi. She'riy matnlar poetik til, badiiy obraz va uslubiy vositalar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shoirlarning individual uslubi ularning badiiy-estetik qarashlari asosida o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida ilmiy manbalar, she'riy to'plamlar va adabiy-tanqidiy qarashlarga tayaniladi.

Tahlillar va natijalar. Chunonchi, ikkilikning "Sochilgan baytlar" (Erkin Vohidov), "Ikkiliklar" (Mahmud Toir), "Sachratqilar" (Go'zal Begim) kabi turlicha nomlanishi ham shakli va mazmuniy o'zgachalikka ishoradir. Shaklan qisqalik va lo'ndalik bunday she'rlarda shoir o'zi xohlagan narsani ifodalay olishi uchun to'sqinlik qilmaydi. Bunda, ayniqsa, shoirning badiiy mahorati katta ahamiyat kasb etadi.

O'tayotib daraxt tagidan

Osmon haqda o'yladim bir pas

Bir pas oy haqida xayolga toldim

Xayol qutisini sindirib shunda [8:7].

Go'zal Begimning birinchi "sachratqi"si 9 bo'g'inli 4+5 tarzda turoqlangan, barmoq vazni qoidalariga muvofiq keladi, ammo she'rdagi ma'no modern kayfiyatning mahsuli. Barmoq vazni qoidasini buzib qo'ymaslik uchun shoira *haqida* so'zini *haqda* shaklida berib ketadi va bu ohangdorlikni yanada kuchaytiradi. Xayolning sarhadsiz kengliklariga to'siq bo'lmasligi uchun shoira she'rda tinish belgilarini ham ishlatmaydi. Keyingi she'r ham barmoq vaznida 11 bo'g'inli 6+5 tarzida turoqlangan. Bunda lirik qahramon oy haqida o'ylash uchun xayol qutisini sindiradi. Chunki faqat oyni o'ylash uchun qolgan xayollarni – xayol qutisini sindirish lozim, xuddi nafsni sindirgan kabi. E'tibor beradigan bo'lsak, Go'zal Begimning "sachratqi"larida qofiya yo'q. Chunki bu she'rlarda oniy bir ruhiy holat tasvirlangan[9:148].

Bugungu kunga kelib adabiyotshunosligimizda bir misralik, ikki misralik, uch misralik she'rlarga ham alohida janr sifatida qarash mavjud. XVI asrda ingliz adabiyotshunosi Ben Jonson bir misrali she'r mavud ekanligini ta'kidlaydi[10:182]. Adabiyotshunos U.To'ychiyev birliklarni "nasriy she'r" deb nomlaydi. Albatta, bunday she'rlarda shoirning individualligi va davr muhiti, kayfiyati katta rol o'ynaydi. Rus olimi

N.L.Stepanov janr haqida shunday deydi: “janr o‘zgaraydigan yoki manguga shakllangan emas, u o‘zgarib va o‘zgarib, nafaqat mazmuni to‘ldirib, balki o‘z strukturasi ham o‘zgartirib boradi” [11:125].

Adabiyotshunos Q.Yulchiyev o‘zining “O‘zbek she‘riyatida birlik va uchlik she‘r poetikasi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida “ignabarg”, “uchchanoq”, “fiqra” kabi she‘r shakllarini janr sifatida tahlil qiladi va ko‘plab manbalardan misollar keltirib o‘tadi. “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da bir misradan iborat she‘r qadimgi davrda she‘riy aforizm deya qaralgani aytib o‘tilgan[4:202]. 2010-yili chop etilgan lug‘atda esa mualliflar guruhi bir qatorli she‘rlarni misra deb atashadi va mumtoz adabiyotda Bobur ijodida, zamonaviy o‘zbek she‘riyatida esa Anvar Obidjon, Ulug‘bek Hamdam, Shermurod Subhon ijodida uchraydi deb qayd etishgan[5:134]. Bunday shakldagi she‘rlarning yaralishida shoirning individual mahorati, ijod laboratoriyasi, davrning ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik o‘zgarishi va she‘riyatning erkinlashuvi katta ahamiyat kasb etgan. “Qadimgi turkiy adabiyotda janrlar poetikasi”ni o‘rgangan M.R.Mamatqulov[6:8] moniylik lirikasiga xos bo‘lgan xususiyatlarni quyidagicha ko‘rsatib o‘tadi:

Bir she‘r tarkibida turli she‘r shakllari mavjud bo‘lgan, ammo ular mustaqil janr sifatida qayd etilmagan. Bo‘g‘inlar miqdori ham turlicha bo‘lgan va bir she‘r doirasida turlicha qofiyalar mavjud bo‘lgan. Yanada aniqlashtiradigan bo‘lsak, qadimgi turkiy adabiyotda ham janr tabiati doimiy o‘zgarib, qorishiq holatda mavjud bo‘lgan. Demak, biz birlik she‘r sistemasini, xususan, ignabarglarni ham she‘riy shakl deb qaraganimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, ushbu she‘riy shaklda bir necha janr xususiyatlari qorishiq holatda uchraydi.

Bugungi o‘zbek she‘riyatida uchlik misralarning soni ham ortib bormoqda. Bu shakl ko‘proq ramz va majozlarga asoslangan bo‘ladi. Bahrom Ro‘zimuhammadning quyidagi uchligidagi ma‘noni birdan anglab olish mushkul:

Gapiraylik sog‘inch tilida (9 bo‘g‘in)

Gap uqtiraylik yurakka (8 bo‘g‘in)

Butun narsa faqat bu tun [7:76]. (8 bo‘g‘in)

Ushbu uchlik 9+8+8 shaklida bo‘g‘inlarga ajralgan bo‘lib, barmoq vazni qoidalariga mos tushmaydi. Turoqlari ham 4+5; 5+4; 4+5 tarzida aralsh hamda qofiya ham yo‘q. Shoir bunda asosiy e‘tiborni ohangga emas, fikrga, mantiqqa qaratadi va vazn, janr qonuniyatlariga amal qilmaydi, ularda chetga chiqadi. Bunda modern tafakkur va mumtoz shakl aralashib, qorishiq holatga kelgan.

Aruz vaznidagi ba‘zi she‘rlar sodda tilda yozilganligi sabab o‘quvchining she‘rni anglashiga hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi. Davrning turli ijodkori bo‘ladimi yoki bir ijodkorning aruzda yozilgan turli janr namunalari bo‘ladimi deyarli janr chegaralaridan chiqmagan holda yozilgan. Barmoqda esa yuqorida aytilganidek, mustaqillik davridan so‘ng lirikada yangi janrlar paydo bo‘ldi va bu mavjud janrlarning yanada kengayishiga,

barmoqda yozilgan she'rlarni tahlil qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaryapti. Bunga ayrim misollarni keltirsak, ular individual ijodiy eksperiment tarzida maydonga kelgan janrlardir. Ya'ni qayirma, ignabarg, uchchanoq, fiqra, tasbeh. Bular o'zi qanday janr?

Ijod uchun, adabiyot uchun bir xillik, qayta tanazzulga eltuvchi yo'ldir. Nafaqat o'zganing, balki o'zining kashfiyotlarini takrorlagan ijodkor adabiyotda yangi gap aytolmaydi. Qayirma – nutqimizda obdon yetilgan, tobiga kelgan narsa, ish, harakat, amal ma'nolarini anglatadi. Bu so'zda pishiqlik, puxtalik ma'nolari bor. Azim Suyun butun boshli "Ey do'st" she'riy kitobini qayirma janrida yozgan.

Shoir o'z asarlariga nisbatan "qayirmalar" ta'birini qo'llaydi. Kitob ham ikki qismdan iborat bo'lib "She'riy qayirmalar" va "Nasriy qayirmalar" deb nomlangan. Adabiyotshunos Q. Yo'ldoshev esa mazkur so'zni shunday ochiqalaydi: "Qayirma so'zi tilimizda obdan yetilgan, tobiga kelgan narsa, ish, harakat, amal ma'nolarini anglatadi. Jumladan, qayirma patirni o'zbek qishloqlarida tajribali kayvonilargina yopa oladi. Bu barchaning ham qo'lidan kelavermaydi. Ko'rinadiki, qayirma so'zida qayishlik, ya'ni pishiqlik, puxtalik ma'nosi bor. Qayirma janridagi bitiklarning Azim Suyun ijodida aynan keyingi yillarda paydo bo'lgani ham shu bilan izohlanadi. Ijodkor muayyan hayotiy bosqichlardan o'tib, yetarli turmush tajribasi va kerakli poetik mahorat orttirgandan keyin o'z ijodida yoniq yurak harorati bilan falsafiy fikrchanlikni uyg'unlashtira olish imkoniga ega bo'ladi. Shunda ijodkorning bitiklariga ko'chgan tuyg'ulari o'qirmanlariga boshqacha ta'sir qiladi, ularni noyob sezimlar, hikmatomuz fikrlar bilan asir etadi" [1:6].

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Azim Suyunning qayirmalariga alohida e'tibor berib, ularni mustaqil janr sifatida e'tirof etish zarurligini ta'kidlagan. Quyida qayirmalar haqidagi fikrlarga e'tibor qaratamiz: "Keyingi yillarda adabiyotda, xususan, she'riyatda yangilik yaratishga, ya'ni har xil uslub va shakllarni yangilashga bo'lgan intilish kuchaydi. Bu qayirmalar Sharq mumtoz she'riyati ummonidan "suv ichayotgani", ya'ni Umar Xayyom, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur kabi ulug'donishmandlarimiz asarlaridagi donolik, teranlik, ixchamlik, lo'ndalik kabi fazilatlariga eshligi, ayni paytda, eng qadimiy davrlarda tog'-toshlarga o'yib yozilgan bitiklardek aniqligi bilangina emas, balki shakldagi yangiligi bilan ham e'tiborga loyiqdir. Biz ruboiy, tuyuq, fard degan janrlarni bilar edik. Menimcha, bularning qatoriga "qayirma" ham alohida janr bo'lib qo'shiladi. Chunki Azim Suyunning g'ayrati va mehnati bilan "qayirma" ham mustaqil janr xususiyatlariga ega bo'ladi. "Ey do'st" degan satr murojaatdangina iborat emas. U turli o'rinlarda turlicha ohang va ma'no kasb etmoqda. To'rtlikni ma'no va shakl jihatidan yangilamoqda. Shu bilan Sharqda ming yillardan beri o'zgartirib bo'lmaydiganday tuyulgan to'rtlik, eng muhimi, yangicha ruhda ko'rinmoqda" [1:3]. Fikrimizcha, qayirma ruboiy, to'rtlik kabi janrlar ta'sirda paydo bo'lgan.

Azim Suyun qayirmalari haqida ko'plab ijodkorlar, adabiyotshunos olimlar o'z fikr-mulohazalarini bildirishgan. Jumladan, Abdulla Oripov, Qozoqboy Yo'ldoshev,

To'lepbergen Qayipbergenov, Halima Xudoyberdiyeva, Saydi Umirov, Salim Ashur kabilarning [3:6] Azim Suyun ijodi, xususan, qayirmalari yuzasidan olib borgan kuzatishlari ham katta ahamiyat kasb etadi. "Zamonaviy o'zbek she'riyatida poetik obraz va uning badiiy talqini" mavzusida ilmiy ish olib borgan yosh tadqiqotchi N. Keldiyorova Azim Suyun ijodidagi qayirmalarni alohida tadqiq etadi. Adabiyotshunos D. Quronov mazkur janrlarni (qayirma, ignabarg, uchchanoq, fiqra) ijodiy-eksperiment tarzida yuzaga kelganini bildiradi. Tadqiqotchi N.Keldiyorova qayirmalarning mavzu ko'lami turli xilligini ta'kidlar ekan, ularni falsafiy mazmundagi, nafs balosidan ogoh etuvchi, falsafiy-diniy mazmundagi, hikmatomuz g'oyalarni ilgari suruvchi, insoniy g'urur va g'oyalarni ilgari suruvchi, erk-ozodlik g'oyalarni ifodalovchi, xiyonat haqida, do'stlik kabi 8 ta mavzuga ajratadi. Tadqiqotchi Azim Suyun to'rtlik oldiga misra kiritib, ularni qayirma deb atagani va shoirning uslubiy-shakliy izlanishlari mavjudligi, ammo ularni janr talabiga javob berish-bemasligini vaqt ixtiyoriga qo'yishni ta'kidlab o'tadi. Tadqiqotchi N.Keldiyorova qayirma janrining kelib chiqishini qadimgi turkiy tildagi to'rtlik va Sharq she'riyatida ruboiy janrining mantiqiy davomi sifatida baholaydi. Xulosa o'rnida esa tadqiqotchi shunday yozadi: "Qayirma alohida janr bo'lishi uchun uning qator shakliy va mazmuniy talablari, ritmik-semantik, ritmik-intonatsion jihatlari bo'lishi hamda ma'lum muddat davomida she'riyatimizda boshqalar tomonidan ham qo'llanib, amaliyotga joriylanishi va vaqt sinovidan o'tib, boshqa janrlar qatoridan muqim joy olishi shart bo'ladi. Shuning uchun qayirmalarni janrdan ko'ra, ko'proq shakliy-uslubiy izlanish mahsuli deyish maqsadga muvofiq bo'ladi"[2:96]. Ushbu fikrlar bizning fikrimizni ham tasdiqlaydi. Darhaqiqat, qayirmalar Umar Xayyom, Bedil, Navoiy, Rumi kabi shoirlar va xalq og'zaki ijodidan ijodiy oziqlangan. Shuning uchun qayirmaning janr sifatida emas, shoirning shakliy-uslubiy izlanishlarining natijasi sifatida baholash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa. Azim Suyun ijodidagi "qayirma" larni mustaqil janr sifatida belgilashga nazariy asoslarimiz yo'q. Chunki, to'rtlik, ruboiy, tuyuq kabi to'rt qatordan iborat she'rlarning genezisi xalq og'zaki ijodi namunalariga, mumtoz adabiyotimiz janrlariga borib taqaladi. Biz yuqorida ko'rib o'tgan qayirmalarda esa, ana shu jarayonlarda yana qayta toblangan, shakliy va mazmuniy yangilangan badiiy modifikatsiyani ko'ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azim Suyun. Эй дўст ёхуд Азимнома. –Т.: Академнашр, 2018. –Б. 137.
2. Келдиёрова Наима. Замонавий ўзбек шеърлятида поетик образ ва унинг бадий талқини. Филол. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ...дисс. –Т., 2022. –В. 96.
3. Орипов А. Қайирма – мустақил жанр // Тафаккур. –Т., 2004; Йўлдошев Қ. Янгиланиш эҳтиёжи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. –Т., 2005, 5 август; Ашур С. Сўз ҳарорати // Ёшлик, 2005. – № 6.
4. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1983. –Б. 202.
5. Салаев Ф., Курбониезов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. –Т.: Янги аср авлоди, 2010. –Б. 134.

6. Маматкулов М.Р. Қадимги туркий адабиётда жанрлар поетикаси. Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2004. –Б. 8.
7. Рўзимухаммад Б. Гапирайлик соғинч тилида: [Шеърлар] // Шарқ юлдузи. –2007. –№ 6. –Б . 75-76.
8. Гўзал Бегим. Учаётган япроқ сояси. –Т.: Ёзувчи, 2002. –Б. 7.
9. Мамиралиев Қ. Истиқлол даври ўзбек шеърлятида индивидуал жанрлар // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги – ЎЗА (электрон журнал). – Toshkent, 2022. –№ 3. –Б. 141-148.
10. Бен Жонсон. Қайдлар ёки кузатишлар. Китобда: Ғарб адабий –танқидий тафаккури тарихи очерклари. –Т.: Фан, 2008. –Б. 182.
11. Степанов Н.Л. Лирика Пушкина. –М.: Художественная литература, 1974. – С. 125.

